



SHAXS XUSUSIYATLARINING RIVOJLANISHI

Kasimova Dilfuza Bag'bekovna

Xorazm viloyati Hazorasp tumani 34-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning individual psixologik xususiyatlarining rivojlanish dinamikasi va psixik xususiyatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Individuallik, psixologik xususiyat, temperament, harakter, qobiliyat, aralashma, introvert, ekstrover, rigidlik,

Zamonaviy psixologiyada xam antik davr psixologiyasida ham psixologiyaning o'rganish obyekti shaxs bo'lgan. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki har bir shaxs tarrorlanmas indivirual psixologik hususiyatga ega. Umumiy psixologiyada shaxsning individual psixologik xususiyatlariga – temperament, xarakter va qobiliyatni kiritish mumkin. Bu 3 ta komponent shaxsning o'ziga xos va tarkrorlanmas xususiyatlarini namoyon qiladi. Temperament – (lot. «temperamentum» - aralashma) inson psixikasining individual jihatdan o'ziga xos, shaxs faoliyati va xulqining dinamik, ya'ni o'zgaruvchan va emotsional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi xususiyatlar majmuidir. Shaxsning individual xususiyatlari uning tug'ma, biologik xususiyatlariga bog'liq. Chunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan biologik - yaxlitlik, tug'ma sifatlarni o'z ichiga olgan individ hamdir. Temperament xususiyatlari aslida - tug'ma hisoblansada, shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo'lgani uchun ham ma'lum ma'noda dinamik ko'rinishda bo'ladi. Shu bois, har bir temperament xususiyatlarini va uning shaxs tizimiga aloqasini bilish va shunga yarasha xulosalar chiqarish kerak. Temperament haqida ta'limot ilk bora yunon tabibi Gippokrat (eramizdan avvalgi 460 – 356 yillarda) tomonidan yaratilgan bo'lib, uning ta'limotiga asosan «temperament»



tushunchasi paydo bo`lgan va temperament turlarining nomlari shu kunga qadar saqlanib qolgan. Gippokrat fikricha inson organizmida 4 xil suyuqlik mavjud: safro (yunon - “chole”), qon (lotin - “sanguis”), qora o`t (yunon - “meliane chole”), shilimshiq (yunon - “hlagma”). Har bir suyuqlik o`z xususiyati va o`rniga ega. Safro xususiyati – quruqlik. Uning o`rni organizmda quruqlikni saqlash. Qonning xususiyati – issiqlik. U organizmni isitadi. Qora o`t xususiyati – namlik. U organizmdagi namlikni saqlashga xizmat qiladi. Shilimshiqning xususiyati – sovuqlik. U organizmni sovutishga xizmat qiladi. Ilk bora temperament xususiyatlarining psixologik tavsifi nemis faylasufi I. Kant gumoral nazariya asoschilariga suyangan holda, temperament va xarakter sifatlarini aralashib ketishi fikrini namoyon qildi. Buyuk fiziolog, oliy nerv faoliyatining asoschisi I.P.Pavlovning bergan ta`rifi ko`ra: temperament – har bir insonning alohida umumiy tavsifi bo`lib, nerv tizimining asosiy tavsifidir va u individning faoliyatigi alohida tus beradi.

Shaxs uchun xarakterli bo`lgan ayrim psixologik xususiyatlar asosida kishining temperamenti qandayligi haqidagi tasavvur vujudga keladi. Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi haqida mashhur psixolog V.S.Merlin temperamentning psixologik tastig`ini keltirib o`tgan: senzitivlik – tashqi ta`sirlarga ma`lum miqdordagi psixik javob berish kuchi; reaktivlik – [emotsional reaksiya kuchi](#), emotsionallik, ta`sirchanlik, taassurotga berilish; faollik – tashqi olamga ta`sir etish; reaktivlik va faollik munosabati; ta`sirga javob tempi psixik jarayonlar va ta`sirlar kechishi tezligi; plastiklik – egiluvchanlik, beriluvchanlik; rigidlik – interlik, [xulq-atvor ikkiluvchanligi](#); ekstravertlik - inson reaksiyasini tashqi ta`sirga bog`liqligi; introvertlik – inson reaksiyasini ichki obrazlar, fikrlar o`tmish va kelajakka bog`liqligi; emotsional qo`zg`aluvchanlik – emotsional jarayonlarning kechishi va tashqi ifodalanishi bilan harakterlanadi.

Shuni alohida ta`kidlab o`tish kerakki, psixik faoliyatning dinamikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg`ularga ham bevosita bogliqdir. Shundan kelib chiqqan holda temperament tiplarini ko`rib chiqamiz. Sangvinik - juda faol, qiziquvchan bo`lib, atrog`dagi [narsalar](#), insonlar diqqatini tez jalb



etadi. U imo-ishoralarni ko'p ishlatib, uning chehrasiga qarab kayg'iyatini anglab olish qiyin emas. Juda sezgir bo'lishiga qaramay, kuchsiz ta'sirni seza olmaydi, serg'ayrat, ishchan, toliqmas.

Holerik - sust sezitivlik xususiyatiga ega bo'lib, juda faol va reaktivdir. Ko'pincha reaktivligi faollikdan ustun kelib, u betoqatlik, serzardalik va giperaktivlikni kutilmaganda portlovchi, [qiziqqon](#), betoqatlikni namoyon qiladi.

Flegmatik - sezitivligi sust, his-tuyg'usi kam o'zgaruvchan, shunga ko'ra bunday shaxsni kuldirish, jaxlini chiqarish, kayg'iyatini bo'zish qiyin bo'lib, ko'ngillsiz hodisa xavf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo'ladi. Vazmin, kam harakat, imo-ishorasi, mimikasi ko'zga [yaqqol tashlanmasada](#), lekin serg'ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatlidir. Uning nutq va harakat sur'ati sust.

Melanholik - sezitivligi yuksak, tortinchoq, g'ayratsiz, arazchan, xafaqon, jimgina yig'laydi, kam kuladi, qat'iyli va mustaqilligi zaig', [tez toliqadi](#), ishchan emas. Diqqati barqaror, his-tuyg'usi sust o'zgaruvchan. Rigid va introvert. Yuqori sezitivlik, yuqori tuyg'uga beriluvchanlik. Uyatchan, tez xafa bo'ladi. Mimika va jestlar yaxshi namoyon bo'lmaydi. Sust faollik. O'z-o'ziga ishonch yo'q, arzimagan narsalardan tushkunlikka tushadi. Qat'iy emas, tez charchaydi, ishchan emas, diqqati tez buziladi. Temperament va xarakter bir-biri bilan bog'liq holda insonlarda o'ziga xos xarakter xususiyatini namoyon etadi. Temperamentning ba'zi bir jihatlari xarakter xususiyatlarini namoyon etishda xizmat qiladi.

Xarakter xususiyatlari [insonda oila muhitida](#), jamiyat ta'siri ostida va ta'lim - tarbiyada shakllanadi. Insonga tug'ma ravishda berilgan temperament xususiyatlari jamiyatning faoliyat turlariga qarab ijtimoiylashadi. Temperament alohida olingan har bir insonning umumiy va asab tizimining asosiy tavsifi bo'lib, bu tavsif shaxsning butun faoliyatiga ta'sir etadi. Xarakter - ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topib, shaxsning atrofdagi voqelikka va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida ifodalanadigan, muayyan sharoitda tipik xulqatvor usullarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig'indisidir (yunonchadan «xislat», «belgi», «tamg'a»). Xarakter hamisha shaxsning o'ziga xos



bo`lgan sifatlarini belgilab beradi. Shuning uchun ham xarakter kishining biror hayotiy vaziyat sharoitida o`zini qanday tutishini oldindan ko`rish imkonini beradi.

Xarakter tug`ma bo`lmaydi. Faqat layoqat nishonlari tug`ma bo`lishi mumkin, ular nerv sistemasining xususiyatlariga bog`liq bo`ladi. U kishining hayot va faoliyat sharoitlariga bog`liq holda tarkib topib, o`zgaruvchan va tarbiyalanuvchandir. Maxsus sharoitda ta`lim-tarbiya ta`sirida salbiy xarakter xususiyatlarini bartaraf qilish, ijobiy xarakter xususiyatlarini shakllantirish mumkin. Bu esa inson kamoloti va jamiyatda o`z o`rnini topishi uchun muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G`oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.
2. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoe posobie
3. Lojkin .G.V. Povyakel N.I Prakticheskaya psixologiya v sistemax
4. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey:P osobie dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003